# VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma’lumotlariga ko‘ra, 2021 yilning 1 iyul holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni 79 993 tani tashkil qilib, shundan 57 283 tasi yoki 71,6 foizi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar asosan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasiga 38 298 ta (47,9 foizi), savdo 13 826 ta (17,3 foizi), sanoat 8 141 ta (10,2 foizi), qurilish 3 429 ta (4,3 foizi), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 3 738 ta (4,7 foizi) sohalariga to‘g‘ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha korxona va tashkilotlar soni**

| | *Ro‘yxatga olinganlar* | | *Faoliyat ko‘rsatayotganlar* | |
|---|---|---|---|---|
| | *birlik* | *yakunga nisbatan, % da* | *birlik* | *yakunga nisbatan, % da* |
| **Jami** | **79993** | **100** | **57283** | **100** |
| *shu jumladan:* | | | | |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 38298 | 47,9 | 17531 | 30,6 |
| Sanoat | 8141 | 10,2 | 7753 | 13,5 |
| Qurilish | 3429 | 4,3 | 3282 | 5,7 |
| Savdo | 13826 | 17,3 | 13152 | 23 |
| Tashish va saqlash | 1218 | 1,5 | 1163 | 2 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 3738 | 4,7 | 3545 | 6,2 |
| Axborot va aloqa | 751 | 0,9 | 711 | 1,2 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar | 882 | 1,1 | 857 | 1,5 |
| Boshqa turdagi xizmatlar | 9710 | 12,1 | 9289 | 16,2 |

Ro‘yxatga olingan korxonalar umumiy sonining 5,1 foizi davlat va 94,9 foizi nodavlat mulki shaklidagi korxonalar hisoblanadi.

**Ro‘yxatga olingan xo‘jalik yurituvchi subyektlar**
*(umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)*




**01.07.2020 y.** **01.07.2021 y.**

Ro‘yxatga olingan korxonalarning 94,9 foizini nodavlat mulki shaklidagi korxonalar tashkil qilib, jami nodavlat shaklidagi korxonalarning 9,4 foizi xususiy korxonalar, 0,8 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, 20,1 foizi oilaviy korxonalar va 64,6 foizi boshqa korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

**Ro‘yxatga olingan nodavlat mulkidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar**
*(umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)*

**01.07.2020 y.** **01.07.2021 y.**




2021 yil yanvar-iyun oylarida jami 5 770 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan. Ularning asosiy qismi Samarqand shahrida (23,2 foizi), Ishtixon (5,7 foizi),

Samarqand (7,4 foizi), Pastdarg‘om (8,5 foizi), Urgut (8,2 foizi), Payariq (5,5 foizi), Oqdaryo (5,3 foizi), Kattaqo‘rg‘on (6,4 foizi), Jomboy (4,4 foizi), Toyloq (4,2 foizi) va Bulung‘ur (4,0 foizi) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning 34,0 foizi savdo, 20,3 foizi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 19,2 foizi sanoat, 7,9 foizi yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 4,4 qurilish, 1,6 foizi tashish va saqlash, 2,0 axborot va aloqa, 1,5 sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish hamda 9,1 foizi boshqa sohalarga to‘g‘ri keladi.

Hisobot davrida 780 ta korxona va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2021 yil 1 iyul holatiga viloyatda jami 628 ta xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar mavjud bo‘lib, ulardan 430 tasi qo‘shma korxonalar, 198 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni,** *birlikda*




**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi**

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida (278 ta yoki 44,3 foizi), Kattaqoʻrgʻon shahrida (22 ta 3,5 foizi), Urgut (53 ta 8,4 foizi), Jomboy (43 ta 6,8 foizi), Samarqand (43 ta 6,8 foizi), Oqdaryo (33 ta 5,3 foizi), Pastdargʻom (28 ta 4,5 foizi), Bulungʻur (24 ta 3,8 foizi), Nurobod (14 ta 2,2 foizi), Toyloq (13 ta 2,1 foizi) va Kattaqoʻrgʻon tumanlari (11 tadan 1,8 foizi) hissalariga toʻgʻri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Narpay (4 ta 0,6 foizi) va Paxtachi tumanlarida 9 tadan 1,4 foizi) hissalariga toʻgʻri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

| | *Soni* | *ulushi,%* |
|---|---|---|
| **Viloyat boʻyicha** | **628** | **100,0** |
| Samarqand sh. | 278 | 44,3 |
| Kattaqoʻrgʻon sh. | 22 | 3,5 |
| *tumanlar:* | | |
| Oqdaryo | 33 | 5,3 |
| Bulungʻur | 24 | 3,8 |
| Jomboy | 43 | 6,8 |
| Ishtixon | 15 | 2,4 |
| Kattaqoʻrgʻon | 11 | 1,8 |
| Qoʻshrabot | 21 | 3,3 |
| Narpay | 4 | 0,6 |
| Payariq | 17 | 2,7 |
| Pastdargʻom | 28 | 4,5 |
| Paxtachi | 9 | 1,4 |
| Samarqand | 43 | 6,8 |
| Nurobod | 14 | 2,2 |
| Urgut | 53 | 8,4 |
| Toyloq | 13 | 2,1 |

**Faoliyat koʻrsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarninig hududlar kesimidagi soni,** *birlikda*




Sohalar kesimida ushbu ma’lumotlar 2021 yilning 1 iyul holatiga qaralganda eng koʻp sanoatda 315 ta (50,2 foiz), savdoda 103 ta (16,4 foiz), qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 73 ta (11,6 foiz), boshqa turlarida esa 50 ta (8,0 foiz), qurilishda 37 tani (5,9 foiz), yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlarda 21 ta (3,3 foiz)ni tashkil

qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 7 ta (1,1 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 7 ta (1,1 foiz) hamda tashish va saqlashda 15 ta (2,4 foiz)ni tashkil qilgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,** *foizda*




2021 yil yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha viloyatda jami 56 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi Samarqand shahrida 35 ta, Kattaqo'rg'on shahrida 4 ta, Qo'shrabot va Urgut tumanida 3 tadan, Oqdaryo, Kattaqo'rg'on va Pastdarg'om tumanida 2 tadan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 17 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 8 ta, savdoda 14 ta, qurilishda 1 ta, axborot va aloqada 2 ta hamda boshqa turlarida 9 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni,** *birlikda*




## Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2021 yil 1 iyul holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 37 581 tani tashkil qilib o‘tgan yilga nisbatan 29,8 foizga oshgan. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi, ya’ni 11 268 tasi (30,0 foizi) Samarqand shahriga, 3 296 tasi (8,8 foizi) Urgut, 3 177 ta (8,5 %) Pastdarg‘om hamda 2 869 tasi (7,6 %) Samarqand tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2021 yil yanvar-iyun oylari davomida 5 147 ta kichik tadbirkorlik subyektlari yangi tashkil etilgan bo‘lib, Samarqand shahrida (1294 ta), Pastdarg‘om (461 ta), Urgut (419 ta), Samarqand (409 ta), Oqdaryo (281 ta) va Ishtixon tumanlarida (295 ta) tashkil etilgan. Eng kam yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari esa Narpay (173 ta) hamda Qo‘shrabot (127 ta) tumanlariga to‘g‘ri kelgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari,** *birlikda*




**Oilaviy korxonalar soni**

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2021 yilning 1 iyul holatiga 8 555 tani tashkil etib, ulardan 8 090 tasi yoki 94,6 foizi faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro‘yxatidan o‘tganlarning hamda faoliyat ko‘rsatayotganlarning umumiy soni o‘rtacha 48,2 foizga o‘sgan.

**Oilaviy korxonalar sonining o‘sish dinamikasi,** *birlikda*




Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi, ya’ni 2 045 tasi Samarqand shahriga, 937 tasi Pastdarg‘om, 916 tasi Samarqand hamda 651 tasi Payariq tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni,** *birlikda*




Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qaralganda oilaviy korxonalarning 35,7 foizi yoki 2 889 tasi savdoda, 26,2 foizi yoki 2 118 tasi sanoatda, 22,1 foizi yoki 1 789 tasi yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda, 7,6 foizi yoki 617 tasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 0,9 foizi yoki 75 tasi axborot va aloqada, 0,7 foizi yoki 57 tasi qurilishda, 0,5 foizi yoki 41 tasi tashish va saqlashda, 0,4 foizi yoki 36 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda hamda 5,8 foizi yoki 468 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



**Korxonalar va tashkilotlarning (dehqon va fermer xo‘jaliklarsiz) hududlar bo‘yicha taqsimlanishi,** *birlikda*

| | *Ro‘yxatga olingan* | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *01.07.2020 y. holatiga* | *shundan: kichik korxona va mikrofirmalar* | *01.07.2021 y. holatiga* | *shundan: kichik korxona va mikrofirmalar* |
| **Viloyat bo‘yicha** | **37019** | **30958** | **45701** | **39528** |
| Samarqand sh. | 10776 | 9279 | 13346 | 11803 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 1286 | 1108 | 1534 | 1355 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Oqdaryo | 1467 | 1215 | 1859 | 1606 |
| Bulung‘ur | 1443 | 1165 | 1794 | 1510 |
| Jomboy | 1379 | 1129 | 1761 | 1512 |
| Ishtixon | 2008 | 1684 | 2429 | 2101 |
| Kattaqo‘rg‘on | 1907 | 1568 | 2245 | 1895 |
| Qo‘shrabot | 919 | 684 | 1101 | 860 |
| Narpay | 1267 | 974 | 1499 | 1199 |
| Payariq | 2027 | 1670 | 2404 | 2044 |
| Pastdarg‘om | 3118 | 2613 | 3847 | 3338 |
| Paxtachi | 941 | 681 | 1212 | 954 |
| Samarqand | 2697 | 2387 | 3417 | 3103 |
| Nurobod | 1079 | 859 | 1393 | 1167 |
| Urgut | 3163 | 2669 | 3905 | 3394 |
| Toyloq | 1542 | 1273 | 1955 | 1687 |

*davomi*

| | *Faoliyat ko'rsatayotgan* | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *01.07.2020 y. holatiga* | *shundan: kichik korxona va mikrofirmalar* | *01.07.2021 y. holatiga* | *shundan: kichik korxona va mikrofirmalar* |
| **Viloyat bo'yicha** | **34790** | **28953** | **43465** | **37581** |
| Samarqand sh. | 10353 | 8949 | 12705 | 11268 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 1212 | 1035 | 1426 | 1251 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Oqdaryo | 1282 | 1043 | 1741 | 1499 |
| Bulung'ur | 1357 | 1089 | 1739 | 1467 |
| Jomboy | 1340 | 1102 | 1709 | 1474 |
| Ishtixon | 1840 | 1529 | 2304 | 1997 |
| Kattaqo'rg'on | 1785 | 1456 | 2172 | 1831 |
| Qo'shrabot | 856 | 623 | 1025 | 790 |
| Narpay | 1215 | 929 | 1469 | 1180 |
| Payariq | 1812 | 1465 | 2247 | 1902 |
| Pastdarg'om | 2884 | 2387 | 3671 | 3177 |
| Paxtachi | 897 | 651 | 1177 | 935 |
| Samarqand | 2462 | 2167 | 3167 | 2869 |
| Nurobod | 1004 | 787 | 1324 | 1106 |
| Urgut | 3060 | 2575 | 3788 | 3296 |
| Toyloq | 1431 | 1166 | 1801 | 1539 |

*davomi*

| | *Faoliyat ko'rsatmayotgan* | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *01.07.2020 y. holatiga* | *shundan: kichik korxona va mikrofirmalar* | *01.07.2021 y. holatiga* | *shundan: kichik korxona va mikrofirmalar* |
| **Viloyat bo'yicha** | **2229** | **2005** | **2236** | **1947** |
| Samarqand sh. | 423 | 330 | 641 | 535 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 74 | 73 | 108 | 104 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Oqdaryo | 185 | 172 | 118 | 107 |
| Bulung'ur | 86 | 76 | 55 | 43 |
| Jomboy | 39 | 27 | 52 | 38 |
| Ishtixon | 168 | 155 | 125 | 104 |
| Kattaqo'rg'on | 122 | 112 | 73 | 64 |
| Qo'shrabot | 63 | 61 | 76 | 70 |
| Narpay | 52 | 45 | 30 | 19 |
| Payariq | 215 | 205 | 157 | 142 |
| Pastdarg'om | 234 | 226 | 176 | 161 |
| Paxtachi | 44 | 30 | 35 | 19 |
| Samarqand | 235 | 220 | 250 | 234 |
| Nurobod | 75 | 72 | 69 | 61 |
| Urgut | 103 | 94 | 117 | 98 |
| Toyloq | 111 | 107 | 154 | 148 |

*davomi*

| | Yangi tashkil etilgan | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *01.07.2020 y. holatiga* | *shundan: kichik korxona va mikrofirmalar* | *01.07.2021 y. holatiga* | *shundan: kichik korxona va mikrofirmalar* |
| **Viloyat bo'yicha** | **4127** | **4049** | **5260** | **5147** |
| Samarqand sh. | 868 | 844 | 1337 | 1294 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 167 | 165 | 154 | 148 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Oqdaryo | 171 | 169 | 285 | 281 |
| Bulung'ur | 200 | 193 | 206 | 204 |
| Jomboy | 197 | 195 | 222 | 216 |
| Ishtixon | 252 | 250 | 299 | 295 |
| Kattaqo'rg'on | 341 | 337 | 268 | 261 |
| Qo'shrabot | 167 | 162 | 128 | 127 |
| Narpay | 160 | 159 | 179 | 173 |
| Payariq | 195 | 190 | 242 | 238 |
| Pastdarg'om | 330 | 325 | 464 | 461 |
| Paxtachi | 122 | 116 | 181 | 177 |
| Samarqand | 342 | 339 | 412 | 409 |
| Nurobod | 152 | 151 | 211 | 208 |
| Urgut | 294 | 286 | 435 | 419 |
| Toyloq | 169 | 168 | 237 | 236 |

*davomi*

| | *Faoliyati tugatilgan* | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *01.07.2020 y. holatiga* | *shundan: kichik korxona va mikrofirmalar* | *01.07.2021 y. holatiga* | *shundan: kichik korxona va mikrofirmalar* |
| **Viloyat bo‘yicha** | **381** | **365** | **705** | **686** |
| Samarqand sh. | 58 | 57 | 152 | 147 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 16 | 15 | 31 | 29 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Oqdaryo | 27 | 27 | 24 | 24 |
| Bulung‘ur | 7 | 6 | 9 | 9 |
| Jomboy | 23 | 23 | 27 | 24 |
| Ishtixon | 13 | 11 | 65 | 64 |
| Kattaqo‘rg‘on | 33 | 25 | 38 | 38 |
| Qo‘shrabot | 1 | 1 | 21 | 21 |
| Narpay | 3 | 3 | 22 | 21 |
| Payariq | 8 | 8 | 61 | 60 |
| Pastdarg‘om | 27 | 26 | 61 | 61 |
| Paxtachi | 25 | 25 | 24 | 23 |
| Samarqand | 19 | 19 | 29 | 29 |
| Nurobod | 46 | 44 | 12 | 12 |
| Urgut | 40 | 40 | 102 | 97 |
| Toyloq | 35 | 35 | 27 | 27 |